

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KOGNITIV RIVOJLANTIRUVCHI FAOLIYATIGA TARBIYACHINING POLIFUNKSIONAL YONDASHUVI

M.R.Rahimberganova-Urganch davlat Pedagogika Instituti mustaqil  
izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonini rivojlanishida tarbiyachining ko‘p tomonlama yondashuvlari tizimini shakllantirishda asos bo‘lib hizmat qiluvchi va pedagoglarning bu faoliyatda yangicha texnologiyalar asosida mukammal tarzda jarayonni tashkil qilishi, ta’lim-tarbiya jarayonlarida bolaning bilish ko‘nikmalarini shakllantirishga ta’sir qiluvchi turli omillarni ta’sirini o‘rganish va ularning oldini olish bo‘yicha tarbiyachida shu sifatni, ko‘nikmani yuzaga chiqarishda bir vosita sifatida hizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** kognitiv qobiliyat, kreativlik, polifunksionallik, rivojlantiruvchi muhit, yosh psixologiyasi, akseleratsiya, ijodiylik, qobiliyat, bilim, bilish.

**Abstract.** This article discusses methods for improving the multifunctionality and creativity of educators in organizing children's cognitive and intellectual development activities in preschool educational organizations, as well as tasks that serve as the basis for the formation of different approaches in future educators.

**Key words:** cognitive ability, creativity, multifunctionality, developmental environment, youth psychology, acceleration, creativity, ability, knowledge, cognition.

**Kirish:** Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim-tarbiya jarayonlarida tarbiyachi-pedagoglarimizga qo‘yilayotgan talablar, bolaning rivojlanishi, tarbiyalanishi va davlat standarti talablariga, hamda tizimda amaliy jarayonga tadbiiq etilayotgan o‘quv dasturlariga muvofiq faoliyatni tashkil qilish, shuningdek, jarayon bilan bog‘liq turli masala va muammolarning pedagoglar faoliyatiga salbiy ta’sirlari albatta diqqatimizni tortadi. Negaki tarbiyachining kun davomida ertalabki qabul jarayonlaridan tortib bolani kuzatishgacha bo‘lgan davrdagi barcha faoliyatlari kun tartibi rejasiga muvofiq amalga oshirilib, bu vaqtda tarbiyachining guruhdagi barcha bolalarda deyarli bir xilda bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish jarayoni kutilgan natijani beravermaydi. Bunday vaziyatdan kelib chiqqan holda, tarbiyachiga faoliyatga nisbatan ijodiy, polifunksional (rivojlantiruvchi muhitning

turli tarkibiy qismlaridan xilma- xil foydalanish)<sup>1</sup> yondashish talab qilinadi. Buning uchun bola tarbiyalanayotgan, rivojlanayotgan ijtimoiy muhit, faoliyat bilan bog‘liq barcha jarayonlar uchun sharoit yetarli darajada bo‘lishi muhim.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalar bilish, aqliy rivojlantirish faoliyatini tashkil qilishda tarbiyachining ko‘p funksiyalilik, kreativlik yondashuvini takomillashtirish usullari hamda bo‘lajak tarbiyachilarda turli yondashuvlarni shakllantirish uchun asos bo‘lib hizmat qiluvchi vazifalar yoritilgan.

Bilish jarayonini rivojlantirishning maktabgacha yoshdagi bola uchun ahamiyati quyidagilardan iborat:

❖ Idrokning rivojlanishi bola psixikasining umumiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Usiz bolaning xotirasini, tafakkurini, tasavvurini shakllantirishning iloji yo‘q. Shu bilan birga, idrokning rivojlanishi maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga borishga tayyorlashda ham katta ahamiyat kasb etadi.

❖ Tasavvur va fantaziya – hayotimizning eng muhim jihatidir. Bolalarning tasavvuri o‘qitish va tarbiyalashda kompleks yondashuvning zaxiralarini amalga oshirish uchun katta imkoniyat taqdim qiladi.

❖ Maktabgacha yosh davrining boshida bolada sezish, ixtiyorsiz diqqat, predmetni idrok etish, faol nutq kabi bilish jarayonlari shakllangan bo‘ladi, u so‘z boyligiga ega unga aytilgan gaplarni tushunadi. Ushbu yutuqlar tufayli bola atrof olamni faol o‘zlashtira boshlaydi.

❖ Maktab ta‘limi birdaniga o‘qituvchini diqqat bilan tinglay olish, u dars paytida ko‘rsatadigan narsalarni ongli ravishda kuzatish qobiliyati, yangi material haqidagi tushuntirishlarni eslab qolish kabi katta talablarni qo‘yadi. Yuqorida sanab o‘tilgan ko‘nikmalarning yetarlicha shakllanmasligi parisonxotirlik, xotira pastligi va sabrsizlikka sabab bo‘lishi mumkin. Bunday sifatlarga ega bolalar maktab dasturini yaxshi o‘zlashtirmaydi, tartib-intizomni buzadi, tez charchaydi, e‘tiborsiz bo‘ladi, oson chalg‘iydi, diqqatini yaxshi jamlay olmaydi.

❖ Kognitiv ko‘nikmalar rivojlanishi bilan bolalar o‘z harakatlarini nazorat qilish qobiliyatini egallaydi.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi. Takomillashtirilgan ikkinchi nashr. Toshkent-2022.27-bet.



Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining asosiy vazifalaridan biri bu faoliyatni qiziqarli tarzda, bolaga tushunarli tashkil qilish hisoblanadi, bola faoliyatining asosiy qismini o'yinlar tashkil qiladi. Shularga asoslangan holda bolaning tashkilotdagi asosiy faoliyatini bola uchun o'yin metodidan foydalanib tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Bolalarda hosil qilingan bilim darajasi uning keyinchalik bilishga bo'lgan xohishini, qiziqish va ishtiyoqini, intellektini belgilab beruvchi mezon hisoblanadi. Tarbiyachiga qo'yilayotgan bugungi kunning talabi shuki, zamonaviy texnologiya, metodika, bola uchun qiziqarli o'yinlardan foydalanish ta'lim- tarbiya samaradorligini ta'minlash, individual ishlash mobaynida pedagogik, hamda oila hamkorligini baravariga olib borish, jamoaviy ishlash texnikasini bolalar umumiy guruhining xohish istaklaridan kelib chiqqan holda tashkillash yo'lga qo'yilishi lozim.

Bola erkin faoliyatda giperaktiv, to'xtovsiz harakat qilsada charchamaydi, ammo uning faoliyatini ma'lum maqsadga muvofiq o'zgartirish, erkin muhitdan tizimli muhitga o'tkazish bolani xoldan to'ydiradi. Shuning uchun bola faoliyatini tashkillashtirishda bolalarni qiziqishidan kelib chiqqan holda tashkillashtirish texnologiyasini amalda ko'proq qo'llash lozim.

Bilish jarayoni rivojlanish sohasi indikatorlarini rivojlantirishda boshqa rivojlanish sohasining ham ahamiyati katta ekanligini inobatga olib bola faoliyatidagi ko'zga tashlanuvchi belgilarni aniqlab, rivojlantirish usullarini rejalashtirib borish kerak. Qachonki tarbiyachida iqtidor, qiziqish, harakat, bilim, ijodkorlik, diqqat, nutq, ijtimoiy jarayonga xos sifatlar, tafakkur, fikrlash yuqori bo'lsa, u tarbiyalayotgan bolalarda ham ushbu sifatlar shakllanib boradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” Davlat o'quv dasturi. Takomillashtirilgan ikkinchi nashr. Toshkent-2022.27-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.12.2020 yildagi 802-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” o'quv dasturi. Takomillashtirilgan ikkinchi nashr. 2022-yil 4-fevral. 19-bet.



4. G.Abdullayeva “Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlarini shakllantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari”.BMI.Samarqand-2014.35-bet.
5. Г.А.Камилова “Мақтабгача таълилда компетенциявий ёндашувлар: истикболлар муаммолар ечимлар”. БУХОРО, 2020 йил, 3-ноябр. [tps://uniwork.buxdu.uz/resurs/12943](https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12943)
6. Jalilova S.X, Aripova S.M; Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi.- Toshkent: “Faylasuflar”nashriyoti, 2017.-74-bet.
7. Jon Keho, Nensi Fisher “Ong qudrati-bolalar hizmatida”. “DAVR PRESS” HMY. 2017
8. Kayumova N.M. “Maktabgacha pedagogika”.TDPU nashriyoti T:. 2013 y.245b.

**Elektron ta’lim resurslari:**

9. 1.<https://lex.uz>
10. 2.[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
11. 3.[www.kutubxona.uz](http://www.kutubxona.uz)
12. 4.<https://fayllar.org>
13. 5. “Bolalik akademiyasi” platformasi. <https://bolakadem.uz>
14. 6.<https://www.pedagoglar.uz>

---

# Research Science and Innovation House